

## XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-iyul oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda, milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-iyul oylari yakuni bo'yicha viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 437,4 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 77,9 mln AQSH dollariga yoki 21,7 %ga ko'paygan.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-iyul, mln AQSh dollari)

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
 Tashqi savdo aylanmasi	359,5	437,4	121,7%	X
<b>Ekspor</b> 	124,9	147,2	117,8%	100,0
 tovarlar	116,0	137,1	118,2	93,2
 xizmatlar	9,0	10,1	112,4	6,8
<b>Import</b> 	234,6	290,3	123,8%	100,0
 tovarlar	234,6	290,3	123,8	100,0
 Saldo	-109,6	-143,1	x	x

Ekspor hajmi 147,2 mln AQSH dollari (17,8 %ga ko'paygan) bo'lib, import hajmi 290,3 mln AQSH dollarini (23,8 %ga ko'paygan) tashkil etdi. Hisobot

davrida 143,1 mln AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida, tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*



**XORAZM VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR  
(2022- yil yanvar-iyul, mln AQSH dollari, ulushi %da)**



**Braziliya**

TSA – 106,4  
Eksport – 0,0  
Import – 106,4



**Rossiya Federatsiyasi**

TSA – 85,8  
Eksport – 50,4  
Import – 35,4




**Turkiya**

TSA – 82,3  
Eksport – 20,1  
Import – 62,2



**Xitoy Xalq Respublikasi**

TSA – 63,5  
Eksport – 7,6  
Import – 55,9



**Qozog'iston**

TSA – 29,4  
Eksport – 27,2  
Import – 2,2



**Qirg'iziston**

TSA – 20,1  
Eksport – 19,7  
Import – 0,3



**Turkmaniston**

TSA – 6,8  
Eksport – 2,8  
Import – 4,0



**Germaniya**

TSA – 5,4  
Eksport – 1,4  
Import – 4,0



**Polsha**

TSA – 4,3  
Eksport – 0,6  
Import – 3,7



**Eron Islom Respublikasi**

TSA – 4,0  
Eksport – 1,7  
Import – 2,3

Viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha jahonning 114 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Braziliya (24,3 %), Rossiya Federatsiyasi (19,6 %), Turkiya (18,8 %), Xitoy Xalq Respublikasi (14,5 %), Qozog'iston (6,7 %) davlatlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatimizda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.



**XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN  
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**  
(yanvar-iyul, mln AQSH dollari)

Davlat nomi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Braziliya</b>	<b>6,4</b>	<b>78,3</b>	<b>106,4</b>
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	6,4	78,3	106,4
Saldo	-6,4	-78,3	-106,4
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>79,2</b>	<b>58,1</b>	<b>85,8</b>
Eksport	24,4	35,0	50,4
Import	54,8	23,1	35,4
Saldo	-30,4	11,9	-15,0
<b>Turkiya</b>	<b>25,7</b>	<b>39,8</b>	<b>82,3</b>
Eksport	10,6	15,4	20,1
Import	15,1	24,4	52,2
Saldo	- 4,5	-9,0	42,1
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>40,6</b>	<b>77,2</b>	<b>63,5</b>
Eksport	6,4	15,0	7,6




XORAZM VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

Davlat nomi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Import	34,2	62,2	55,9
Saldo	-27,6	-47,2	-48,3
<b>Qozog'iston</b>	<b>18,2</b>	<b>16,1</b>	<b>29,4</b>
Eksport	16,5	11,6	27,2
Import	1,7	4,5	2,2
Saldo	14,8	7,1	25,0
<b>Qirg'iziston Respublikasi</b>	<b>30,0</b>	<b>23,0</b>	<b>20,1</b>
Eksport	29,8	22,9	19,7
Import	0,2	0,1	0,3
Saldo	29,6	22,8	19,4
<b>Turkmaniston</b>	<b>5,5</b>	<b>7,1</b>	<b>6,8</b>
Eksport	2,5	4,2	2,8
Import	3,0	2,8	4,0
Saldo	-0,5	1,4	-1,2
<b>Germaniya</b>	<b>2,3</b>	<b>3,9</b>	<b>5,4</b>
Eksport	0,3	0,2	1,4
Import	2,0	3,7	4,0
Saldo	-1,7	- 3,5	-2,6
<b>Polsha</b>	<b>0,3</b>	<b>2,1</b>	<b>4,3</b>
Eksport	0,3	0,5	0,6
Import	0,0	1,6	3,7
Saldo	0,3	-1,1	-3,1
<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>4,0</b>	<b>5,2</b>	<b>4,0</b>
Eksport	3,1	2,0	1,7
Import	0,9	3,2	2,3
Saldo	2,2	-1,2	-0,6



**XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-iyul, mln AQSH dollari, ulushi, %da)

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022 - yilning yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 34,4 %ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022 - yilning yanvar-iyul oylarida 2021 - yilning shu davriga nisbatan 17,8 foizga ko'paygan va jami TSAdagi ulushi 65,6 %ni tashkil etdi.


## XORAZM VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-iyul)










Joriy yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning eksportyorlari soni 136 tani tashkil etib, ular tomonidan 147,2 mln AQSH dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 17,8 %ga ko'paygan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 93,2 %ni tashkil etib, ular asosan sanoat tovarlari (47,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (28,5 %), turli xil tayyor buyumlar (12,4 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



- |   |  |
|---|--|
|  Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 28,5                         |  Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – 0,3 % |
|  Ichimliklar va tamaki – 0,0 %   |  Sanoat tovarlari – 47,8 %  |
|  Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari – 1,7 %                       |  Mashinalar va transport asbob-uskunalar – 0,1 %  |
|  Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar – 1,5 % |  Turli xil tayyor buyumlar – 12,4 %   |
|  Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar – 0,9 %       |  Xizmatlar – 6,8 %  |



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI  
(2022- yil yanvar-iyul)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Jami eksport</b>	<b>147,2</b>	<b>117,8</b>	<b>100,0</b>	<b>104,6</b>	<b>130,6</b>	<b>100,0</b>	<b>42,6</b>	<b>94,9</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	41,9	115,4	28,5	37,6	126,2	36,0	4,3	66,0	10,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	-	0,0	0,0	-	0,0	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,5	59,0	1,7	0,9	77,2	0,9	1,5	51,7	3,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	2,3	40,1 m.	1,5	1,6	30,0 m.	1,6	0,6	2121,9 m.	1,5
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,3	19,1 m.	0,9	0,3	3,9 m.	0,3	1,1	-	2,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,4	69,9	0,3	0,4	107,5	0,4	0,0	1,8	0,0
Sanoat tovarlari	70,3	108,3	47,8	39,7	120,4	38,0	30,6	95,8	71,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,1	58,9	0,1	0,1	28,6	0,1	0,1	11,2 m.	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	18,2	190,3	12,4	17,2	181,3	16,5	1,0	12,2 m.	2,4
Xizmatlar	10,1	112,3	6,8	6,7	114,7	6,4	3,4	108,0	8,0

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yoʻnalishi boʻyicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, 2021- yilning yanvar-iyuliga nisbatan nooziq-ovqat xomashyo (yoqilgʻidan tashqari), mashinalar va transport asbob-uskunalari, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar eksportida pasayish kuzatildi.



**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI  
(yanvar-iyul, %da)**


XSST tarkibi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	28,1	29,0	28,5
Ichimliklar va tamaki	0,0	-	0,0
Nooziq-ovqat xom ashyo, yoqilgʻidan tashqari	11,5	3,3	1,7
Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moyi va shunga oʻxshash materiallar	0,0	0,0	1,5
Hayvon va oʻsimliklar moyi (yogʻlari), yogʻlar va mumlar	2,1	0,1	0,9
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar	0,4	0,5	0,3
Sanoat tovarlari	35,4	52,0	47,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,1	0,2	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	17,7	7,7	12,4
Xizmatlar	4,7	7,2	6,8






**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR  
EKSPORTI HAJMLARINING DINAMIKASI**  
(yanvar-iyul, mln AQSH dollari, ulushi %da)

2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 34,3 %), Qozog'iston (18,5 %), Turkiya (13,6 %), Qirg'iziston (13,4 %), Xitoy Xalq Respublikasi (5,1%), Pokiston (2,0 %) va Turkmaniston (1,9 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi umumiy ulushi 88,9 foizni tashkil etmoqda.





**XORAZM VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARNING ULUSHI  
(2022- yil yanvar-iyul, %da)**



2022- yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi yetakchi mavqeini saqlab turibdi. Keyingi holatda Qozog'iston va Turkiya o'rin egallagan.



**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA  
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI  
(yanvar-iyul)**

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, %da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	35,0	50,4	143,0	144,2	1	1
Qozog'iston	11,6	27,2	70,3	2,4 m.	5	2

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, %da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Turkiya	15,4	20,1	145,3	130,1	3	3
Qirg'iziston Respublikasi	22,9	19,7	76,9	86,1	2	4
Xitoy Xalq Respublikasi	15,0	7,6	2,3 m.	50,2	4	5
Pokiston	3,5	3,0	71,0 m.	85,3	7	6

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xom ashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.




**XORAZM VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI**  
(2022- yil yanvar-iyul, mln AQSH dollari)

XSST tarkibi	Rossiya		Qozog'iston		Turkiya		Qirg'iziston	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Jami eksport	35,0	50,4	11,6	27,2	15,4	20,1	22,9	19,7
Shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7,7	17,2	7,1	19,9	0,3	0,2	11,2	0,0
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,2	0,6	0,0	0,2	1,2	0,5	0,5	0,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,0	1,6	0,0	0,0	0,0	0,2	-	-

XSST tarkibi	Rossiya		Qozog'iston		Turkiya		Qirg'iziston	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Hayvon va o'simlik lar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,1	0,0	-	0,2	-	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	23,0	25,8	0,0	0,0	13,6	18,2	4,8	7,2
Sanoat tovarlari	-	-	1,6	3,0	0,0	-	0,2	0,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,3	0,4	0,0	0,0	0,1	1,0	6,2	12,5
Turli xil tayyor buyumlar	3,8	4,8	2,4	4,0	0,1	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	0,2	0,6	0,4	0,1	1,2	0,5	11,2	0,0

Xizmatlar eksporti hajmi 10,1 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 6,8 %ni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,3 foizga o'sish kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (62,7%), safarlar (turizm) (25,2 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (12,1%) hissasiga to'g'ri kelgan.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportida 41,2 mln dollar qiymatli yoki 93,5 ming tonnadan ziyod mahsulot eksport qilingan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 24,1 mln AQSH dollariga teng 64,3 ming tonna sabzavot, shuningdek, 10,6 mln AQSH dollari qiymatidagi 15,7 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi. Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 28,0 %ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2022- yil yanvar-iyul, mln AQSH dollari)



Bugungi kunda viloyatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay

tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'plangan tajribaga ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashni va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (47,5%), Rossiya Federatsiyasi (42,2 %) va Pokiston (5,3%) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.


### XORAZM VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-iyul)

2022- yilning yanvar-iyul oylarida import hajmi 290,3 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 23,8 %ga ko'paygan.

Import tarkibida eng katta ulush oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (38,8%), mashinalar va transport asbob-uskunalari (37,6 %), sanoat tovarlari (7,9 %), nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari 6,9 %) , turli xil tayyor buyumlar (4,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.



#### XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-iyul, ulushi, %da)





Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyulida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 55,7 mln AQSH dollariga ko'paygan va 290,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI  
(2022- yil yanvar-iyul)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mIn AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	mIn AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, %da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mIn AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, %da
<b>Jami import</b>	<b>290,3</b>	<b>123,8</b>	<b>100,0</b>	<b>45,8</b>	<b>127,9</b>	<b>100,0</b>	<b>244,5</b>	<b>123,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	112,5	124,0	38,8	3,8	51,2	8,4	108,7	130,5	44,5
Ichimliklar va tamaki	0,1	3,9 m.	0,0	0,1	3,9 m.	0,2	2,2	75,5	0,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	20,0	123,8	6,9	17,8	134,5	38,8	0,9	145,4	0,4



Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	3,5	199,6	1,2	2,7	2,3 m.	5,8	-	-	-
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,3	97,5	0,4	1,3	105,8	2,8	4,5	53,7	1,9
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	8,2	75,3	2,8	3,6	151,0	7,9	17,0	2,6 m.	6,9
Sanoat tovarlari	23,0	2,2 m.	7,9	6,1	167,1	13,2	100,2	174,3	41,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	109,3	180,5	37,6	9,1	2,9 m.	19,8	11,0	28,0	4,5
Turli xil tayyor buyumlar	12,4	28,9	4,3	1,4	39,1	3,1	108,7	130,5	44,5



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI  
(2022- yil yanvar-iyul, ulushi, %da)**

XSST tarkibi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Jami import</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

shu jumladan:


Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	28,7	38,7	38,8
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11,0	6,9	6,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	1,0	0,8	1,2



XSST tarkibi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,2	0,6	0,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	5,2	4,6	2,8
Sanoat tovarlari	6,1	4,4	7,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	29,2	25,8	37,6
Turli xil tayyor buyumlar	15,6	18,3	4,3



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-iyul, mln AQSH dollari, ulushi %da)



2022- yil yanvar-iyul oylarida import bo'yicha eng yuqori yettitalikda Braziliya, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Germaniya hamda Polsha o'rin egalladi.



**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyul)**

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Braziliya	78,3	106,3	12,2 m.	135,8	1	1
Turkiya	24,3	62,3	160,9	2,5 m.	3	2
Xitoy Xalq Respublikasi	62,2	55,9	182,2	89,9	2	3
Rossiya Federatsiyasi	23,2	35,3	42,3	152,6	4	4
Turkmaniston	2,8	4,0	93,7	141,9	10	5
Germaniya	3,7	4,0	176,9	109,9	7	6
Polsha	1,6	3,7	38,6 m.	2,3 m.	12	7



**XORAZM VILOYATINING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-iyul)**



2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatga 46 ta xorijiy davlatdan tovarlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Braziliya, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Turkmaniston hamda Polsha hamkor davlatlaridan jami import hajmi 271,6 mln AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 93,6 %ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan birqator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi  
bo'limi  
Tel.: (62) 224-65-09**